




# 2021- yil yanvar-avgust oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi






**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalisiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





**2021- yil yanvar-avgust**


**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 281,2 mlrd. so'mga** yetib, uning nominal hajmi **1 285,8 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,3 %** ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)





## 2021- yil yanvar-avgust

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 281,2</b>	<b>121,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	270,1	120,3
Moliyaviy xizmatlar	1 075,5	127,4
Transport xizmatlari	1 244,5	117,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 196,0	117,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	87,3	111,0
Savdo xizmatlari	1 352,5	110,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	154,5	132,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	242,7	154,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	100,7	130,6
Ijara xizmatlari	111,3	127,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	207,5	125,4
Shaxsiy xizmatlar	174,8	126,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	109,7	167,2
Boshqa xizmatlar	150,1	124,1



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich





## **2021- yil yanvar-avgust**

## **Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **25,6 %** ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **3,6 %** ga yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiy hajmda **27,3 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **3,3 %**.

2021- yil yanvar-avgust oylarida yuqori o'sish me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi (**67,2 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlari (**54,1 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**32,1 %**), moliyaviy xizmatlari (**27,4 %**), ijara xizmatlari (**27,4 %**), shaxsiy xizmatlarida (**26,4 %**) qayd etildi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**135,1 %**), moliyaviy xizmatlarida (**128,5 %**) o'sish kuzatildi.



**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogo bo'linadi.

2021- yil yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **25,6 %** ni tashkil etdi, bu esa **1 352,5 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 089,8 mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmining **27,3 %** ga to'g'ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2020- y.**  
**yanvar-avgust**  
Xizmatlar hajmi  
**1 089,8 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**92,9 %**

Ulushi  
**27,3 %**



**2021- y.**  
**yanvar-avgust**  
Xizmatlar hajmi  
**1 352,5 mlrd. so'm**

O'sish sur'ati  
**110,5 %**

Ulushi  
**25,6 %**





## 2021- yil yanvar-avgust

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **25,6 %** ini tashkil etdi.

### Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar-avgust oylarida)

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

**8,7 %**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

**75,7 %**

**15,6 %**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oyida chakana savdo ulushi **77,3 %** ga yetgan.



**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2021- yil yanvar-avgust oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **1 075,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **820,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **20,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **20,4** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **255,2** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **127,4** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati **128,5** % ga yetgan.



## 2021- yil yanvar-avgust

## Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,1 %** oralig'ida qayd etildi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-avgust oylarida)



## Yordamchi moliyaviy faoliyat

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %** ga to'g'ri kelgan.



**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)

**2020- y.  
yanvar-avgust**

220,8  
mlrd. so'm

111,6 %

5,5 %

**Xizmatlar hajmi**

**O'sish sur'ati**

**Jami hajmdagi  
ulushi**

**Hajmning o'sishi**

49,2 mlrd. so'mga

**2021- y.  
yanvar-avgust**

270,0  
mlrd. so'm

120,3 %

5,1 %




## 2021- yil yanvar-avgust

## Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **95,5 %** ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y.  
yanvar-avgust



2021- y.  
yanvar-avgust



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-avgust oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,7 %** ga yetgan.



**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**152,9 mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**

**242,7 mlrd. so'm**

**2020- y. yanvar-avgust**



**2021- y. yanvar-avgust**

2021- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasi-dagi xizmatlar hajmi **226,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,9** % ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **159,5** % ni tashkil etdi.

**97,9 %**

**O'sish sur'atlari, % da**

**154,1 %**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-avgust oylarida xizmatlar hajmi **150,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **97,9** % darajasida qayd etilgan.



**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

68,4

87,3

2020- y.  
yanvar-  
avgust

2021- y.  
yanvar-  
avgust



O'sish  
sur'ati, % da

79,7

111,0

2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **18,9** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y.  
yanvar-avgust

81,8 %

18,2 %



14,6 %

85,4 %

2020- y.  
yanvar-avgust

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,8 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yilda ularning ulushi **85,4 %** ni tashkil etgan.





**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar - avgust

2021- y. yanvar - avgust

70,5 mlrd. so'm

**Xizmatlar hajmi**

100,7 mlrd. so'm



91,1 %

**O'sish sur'ati**

130,6 %

1,6 %

**Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi**

1,9 %






**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-avgust oylarida)



2021- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli - **34,4 %** (2020- yilda **50,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Tuproqqal'a tumanida kuzatilgan – **1,9 %**.



## 2021- yil yanvar-avgust

## Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>5 281,2</b>	<b>121,3</b>	<b>100,6</b>
Urganch shahar	1 817,5	119,0	103,8
Xiva shahar	240,2	146,3	105,3
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	313,8	125,3	101,7
Gurlan	274,6	120,5	94,1
Qo'shko'pir	289,6	121,4	105,1
Urganch	451,7	121,3	82,2
Hazorasp	356,9	115,5	86,1
Tuproqqal'a	101,0	129,5	85,0
Xonqa	359,6	120,4	98,0
Xiva	303,3	128,7	109,0
Shovot	292,1	121,1	101,4
Yangiariq	258,6	121,0	110,0
Yangibozor	222,2	126,2	113,6

*\*) Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*



**2021- yil yanvar-avgust**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

**Xizmatlar hajmi**

**Hajmning o'sishi**

**2 781,3  
ming so'm**

**646,3 ming  
so'mga**

2021- yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

**2 781,3** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **119,6 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 135,0** ming so'mni tashkil etgan.



**119,6 %**

**O'sish sur'ati**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Tel.: 62-224-65-16**